



UDK:378:81

Sarvinov KASIMOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, PhD

TDSHU dotsenti, f.f.n Z. Begmatova taqrizi asosida

### O'ZBEK VA ARAB MATBUOT TILI: AN'ANA VA ZAMONAVIYLIK

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekiston va arab matbuot tilining an'anaviy hamda zamonaviy lingvostilistik xususiyatlarini qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Movarounnahr lingvistlarining ilmiy merosi arab tilini o'rganish, uning uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etish va madaniy-ma'rifiy qadriyatlarini saqlash hamda rivojlantirishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada Abubakr Siddiq (r.a.) nutqlari publisistik uslub namunasi sifatida lingvostilistik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ularda publisistik uslubga xos ta'sirchanlik, ishonirish, aniqlik, soddalik va keng jamoatchilikka murojaat qilish kabi xususiyatlar namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan yoritilgan. Tahlil natijalari Abubakr Siddiq (r.a.) nutqlari jamiyatni birlashtirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash va ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Mazkur jihatlar publisistik uslubning funksional-pragmatik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ekanligi ilmiy xulosalar asosida asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** arab matbuot tili, publisistik uslub, lingvostilistika, publisistik diskurs, Abu Bakr Siddiq (r.a.), Movarounnahr tilshunoslari, funksional uslub.

### UZBEK AND ARABIC PRESS LANGUAGE: TRADITION AND MODERNITY

Annotation

This article is devoted to the comparative and linguostylistic study of the traditional and modern features of the press language in Uzbekistan and the Arab world. The scientific heritage of Mawarannahr linguists is substantiated as having significant theoretical and practical importance in the study of the Arabic language, as well as in the preservation and development of cultural and intellectual traditions. In addition, the speeches of Abu Bakr al-Siddiq (may Allah be pleased with him) are analyzed from a linguostylistic perspective as a model of journalistic style. The analysis reveals that his speeches demonstrate key characteristics of publicistic discourse, including persuasiveness, expressiveness, clarity, simplicity, and direct appeal to the public. The findings indicate that his statements played an important role in social consolidation, moral guidance, and the formation of public consciousness. These features are closely related to the functional and pragmatic aspects of journalistic style and highlight its role as an effective means of social and ideological influence.

**Keywords:** Arabic press language, journalistic style, linguostylistics, publicistic discourse, Abu Bakr al-Siddiq, Mawarannahr linguists, functional style.

### УЗБЕКСКИЙ И АРАБСКИЙ ЯЗЫК ПРЕССЫ: ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ

Аннотация

Данная статья посвящена сравнительно-лингвостилистическому исследованию традиционных и современных особенностей языка прессы Узбекистана и арабского мира. Обоснована значимость научного наследия лингвистов Мавераннахра, которое играет важную теоретическую и практическую роль в изучении арабского языка, исследовании его стилистических возможностей, а также в сохранении и развитии культурно-просветительских ценностей. Кроме того, в статье речи Абу Бакра ас-Сиддика (да будет доволен им Аллах) анализируются с лингвостилистической точки зрения как образец публицистического стиля. Установлено, что в его выступлениях ярко проявляются такие характерные признаки публицистического стиля, как выразительность, убедительность, ясность, простота и обращённость к широкой общественности. Результаты анализа показывают, что речи Абу Бакра ас-Сиддика (да будет доволен им Аллах) сыграли важную роль в консолидации общества, укреплении духовно-нравственных ценностей и воздействии на общественное сознание. Данные особенности рассматриваются в тесной связи с функционально-прагматическими характеристиками публицистического стиля и научно обосновываются на основе проведённого анализа.

**Ключевые слова:** язык арабской прессы, публицистический стиль, лингвостилистика, публицистический дискурс, Абу Бакр ас-Сиддик (да будет доволен им Аллах), лингвисты Мавераннахра, функциональный стиль.

**Kirish.** O'zbekistonda matbuotning asosiy vazifasi madaniy va diniy qadriyatlarini saqlashga qaratilgan bo'lib, o'zbek matbuotiga asos 1870-yillarda qo'yilgan. Ilk o'zbek nashri deb "Turkiston viloyatining gazetisi" e'tirof etiladi. Bu gazeta 1870-yilda Toshkentda nashr etila boshlangan va ikki tilda – rus va o'zbek tillarida chiqarilgan. Gazeta hukumat nashri sifatida ish boshlagan bo'lib, asosan davlat qarorlari, turli axborotlar va jamiyat hayotiga oid ma'lumotlarni tarqatish uchun mo'ljallangan edi. Bu gazeta o'zbek matbuoti uchun muhim tarixiy ahamiyatga ega, chunki u o'zbek tilida

chop etilgan ilk rasmiy nashr bo'lib, milliy matbuot rivojlanishiga poydevor bo'lgan.

Arab matbuoti tarixi esa uzoq davrlar davomida rivojlanib kelgan bo'lib, u arab madaniyati va Islom sivilizatsiyasining muhim bir qismi sifatida shakllangan. Ushbu tarix turli bosqichlarni o'z ichiga olgan bo'lib, u har bir bosqichda muayyan jarayonlar va omillar ta'sirida o'zgarib borgan. Quyida arab matbuoti tarixini kengroq tahlil qilib o'tamiz.

Islomning paydo bo'lishi va uning tarqalishi davrida axborot og'zaki tarzda tarqatilgan. Rasululloh Muhammad sollallohu alayhi vasallam davrida axborot asosan og'zaki o'rtoqlashish, va'zlar orqali yoyilgan. Ushbu davrda asosiy axborot manbai Qur'oni karim bo'lib, uning oyatlari yod olinadigan va yoziladigan darajada qadrlanar edi. Qur'onning yozma shaklda saqlanishi va keyinchalik uning turli manbalariga ko'chirilishi, axborot tarqatishning muhim bosqichi sifatida tarixda o'rin oldi.

Islomning O'zbekiston xududida tarqalishi o'ziga xos matbuot vazifasini bajargan mediovositalar shakllangan.

Mavorounnahr matbuoti asosan diniy ta'limotlar va madaniy merosni saqlash maqsadida rivojlangan. Markaziy Osiyodagi Movarounnahr olimlari, jumladan, Mahmud Zamaxshariy va boshqalar, arab tilida ko'plab ilmiy asarlar yozganlar va arab tili va madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shganlar. Bu mintaqada axborot yozma shaklda saqlanib, diniy va ilmiy ta'limotlar tarqatilgan.

Ma'lumki publisistik uslub jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutadi. U orqali jamoatchilikka muhim va dolzarb ma'lumotlar yetkaziladi, jamoatchilik fikri shakllantiriladi, ijtimoiy muammolar yoritiladi va ular bo'yicha bahs-munozaralar olib boriladi.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyingi vaziyat islom jamoati uchun muhim bir davrni boshlab bergan bo'lib, bu davrda birinchi xalifa Abubakr Siddiq (r.a.)ning so'zlari va harakatlari alohida ahamiyat kasb etgan. Uning so'zlari to'g'ridan-to'g'ri jamoatga yo'naltirilgan bo'lib, ularda publisistik uslubning ayrim xususiyatlari aks etgan. Ya'ni, jamoatchilikni ishonirish, ta'sirchanlik va uning va'z va nasihatlarini orqali jamiyatni birlashtirish muhim o'rin tutgan.[3;28]

Adabiyotlar metodologiyasi (Literature Review)

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini matbuot tili, publisistik uslub, arab tili stilistikasi va Movarounnahr lingvistiklarining ilmiy merosiga bag'ishlangan fundamental ilmiy ishlar tashkil etadi. Jumladan, arab tilshunosligi sohasida muhim ilmiy meros qoldirgan Movarounnahr olimlaridan Mahmud Zamaxshariyning «Al-Kashshaf» va «Al-Mufassal» asarlari arab tilining grammatik va uslubiy xususiyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarlarda tilning funksional va stilistik imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan.

Shuningdek, arab tilshunosligi va balogat ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan Abdulqohir Jurjoniyning «Asror al-balog'a» va «Daloil al-i'joz» asarlari publisistik nutqning ta'sirchanlik va ishonirish xususiyatlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asarlarda nutqning semantik, pragmatik va stilistik jihatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Zamonaviy publisistik uslub va funksional stilistika sohasida rus tilshunoslaridan V.V.Vinogradov, M.N.Kojina va I.R.Galperinning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, V.V.Vinogradovning funksional uslublar nazariyasiga oid tadqiqotlari publisistik uslubning jamiyatdagi vazifasi va uning til xususiyatlarini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. I.R.Galperinning «Tekst kak ob'yekt lingvisticheskogo issledovaniya» asari esa publisistik matnning strukturasi va stilistik xususiyatlarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida ham publisistik uslubni o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Bu borada Sh. Shoabdurahmonov, A.Hojiyev, N.Mahmudov va B.O'rinboev kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida o'zbek tilining funksional uslublari, jumladan, publisistik uslubning til va nutq xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Tahlillar qismi.** Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin musulmon jamoati katta qiyinchilikka

tushgan. Ba'zilar g'amga botgan, ba'zilar esa yo'qotishni qabul qilishda qiyinchilikka duch kelgan. Shu vaziyatda Abubakr Siddiq (r.a.) o'z jamoatining yetakchisi sifatida jamoatga murojaat qilib, Payg'ambarning vafotini qabul qilish zarurligini tushuntirdi.[3;29]

Uning mashhur so'zlari shunday edi: "كَانَ يَغْبُدُ مُحَمَّدًا وَمَنْ كَانَ يَغْبُدُ اللَّهَ فَإِنَّ اللَّهَ حَيٌّ لَا يَمُوتُ" – "Kimki Muhammadga ibodat qilgan bo'lsa, bilib qo'ysin, Muhammad vafot etdi. Kimki Allohga ibodat qilgan bo'lsa, bilib qo'ysin, Alloh har doim tirik va abadiydir." Bu so'zlar publisistik uslubning jamoatchilikka murojaat va ta'sirchanlik xususiyatini aks ettiradi, chunki Abubakrning nutqi musulmonlarning ruhini ko'tarib, ularni Allohga muhabbat va Payg'ambarning missiyasini davom ettirishga chorlagan.

Payg'ambarning vafoti katta sinov bo'lganligi uchun Abubakr (r.a.)ning so'zlari jamoatni birlashtirib, ularga ma'naviy yetakchilik qilish maqsadini ko'zlagan. Bu so'zlar orqali u odamlarni Allohga bo'lgan e'tiqodni mustahkamlashga, muvaqqat hayotning mohiyatini tushunishga undagan. Bu holat publisistik uslubning ishonirish va targ'ibot xususiyati bilan bog'liq.

Abubakr Siddiq (r.a.) o'z so'zlarida juda aniq va ravshan iboralardan foydalangan. Uning maqsadi odamlarga Payg'ambar (s.a.v.) vafot etgan bo'lsa ham, islom yo'lini davom ettirish zarurligini tushuntirish bo'lgan. Bu tushunarli va sodda so'zlar orqali jamoatga uning muhim vazifalari va javobgarligi eslatilgan. Bu jihat publisistik uslubdagi soddalik va tushunarlik xususiyatlarini ham namoyon etadi.

Abubakr (r.a.)ning so'zlari juda kuchli ma'naviy tarbiya xususiyatiga ega bo'lib, ular musulmonlarga Allohga sodiq qolish va o'z mas'uliyatlarini bajarishni eslatgan. Bu so'zlar islom jamoatini birlashtirish, uning kuchini saqlab qolish va muvaffaqiyatli kelajak uchun yo'l ko'rsatgan.

Abubakr Siddiq (r.a.)ning so'zlari publisistik uslubning muhim xususiyatlarini o'z ichiga olgan. Ushbu nutqlar jamoatga yo'naltirilgan bo'lib, ularda: Ijtimoiy ahamiyatli voqealar (Payg'ambarning vafoti); Emosional ta'sirchanlik (musulmonlarning qiyin vaziyatda qalbiga ta'sir o'tkazish); Ishonirish va da'vat (Allohga ishonishni davom ettirishga va uning yo'lida birlashishga chaqirish); Qisqalik va soddalik (so'zlarning ravon va tushunarli bo'lishi) ko'rinib turibdi.

Shuningdek, Abubakr (r.a.)ning so'zlari jamoatchilikni ruhan ko'tarish, ularga yo'l yo'riq berish va jamiyatni yetaklash maqsadida qilingan, bu holatda uning so'zlari katta ta'sirga ega bo'lgan.

Abubakr Siddiq (r.a.) Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) vafotidan so'ng xalifa sifatida qabul qilinganida, u o'zining adolatli va mas'uliyatli rahbarligini namoyon etish uchun musulmonlarga quyidagi nutqni aytgan. Bu nutq uning davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyillarini bayon etadi va adolat, tenglik va haqiqatni ta'minlashga qaratilgan.

"إيها الناس، إني قد وليت عليكم ولست بخيركم، فإن أحسنت فأعِينوني، وإن أسأت فقوموني. الصدق أمانة والكذب خيانة. والضعيف فيكم قوي عندي حتى أخذ الحق له، والقوي فيكم ضعيف عندي حتى أخذ الحق منه. أطيعوني ما أطعت الله ورسوله، فإذا عصيت الله ورسوله فلا طاعة لي عليكم."

"Ey odamlar, sizlarga rahbar qilinganman, ammo men sizlardan yaxshirog'i emasman. Agar yaxshilik qilsam, menga yordam bering. Agar xatoga yo'l qo'ysam, meni to'g'rilab qo'ying. Rostgo'ylik – bu ishonch, yolg'on esa xiyonatdir. Orangizdagi zaif men uchun qudratlidir, to unga haqini olib bermaguncha. Orangizdagi qudratli men uchun zaifdir, to undan haqni olmaguncha. Men Alloh va Uning Rasuliga itoat qilgan holda menga itoat etinglar, agar Alloh va Uning Rasuliga itoat qilmasam, menga itoat qilish shart emas." [3;28]

Bu so'zlar Abubakr Siddiq (r.a.)ning adolatparvarligi va barcha insonlarning huquqlarini himoya qilishdagi adolat va rahm-shafqatga asoslangan yetakchilik prinsiplarining

qat'iyiligi ishora qiladi. U shu tariqa o'z rahbarligida barchaga adolat va teng huquqlar ta'minlanishini va'da qilgan.

Abubakr Siddiqning Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyingi nutqlari ishonch, sabr, vafo va jamoatchilikka yo'naltirilgan so'zlar bo'lib, ular publisistik uslubning eng ta'sirchan elementlarini o'zida aks ettiradi.

**Tahlil va muxokamalar.** Usmoniylar imperiyasi davrida arab dunyosida ilk rasmiy nashrlar paydo bo'la boshladi. Ushbu davrda arab tilidagi gazeta va jurnallar hukumat va boshqa rasmiy tashkilotlar tomonidan nashr etilgan bo'lib, ular asosan davlat faoliyatini yoritish va aholini hukumat qarorlari bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan edi.

1828 yilda Misrda "Al-Vaqoyi al-Misriyya" nomi bilan ilk arab gazetasi nashr qilingan. Bu gazeta hukumatga tegishli bo'lib, unda asosan rasmiy hujjatlar, farmonlar va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar chop etilgan. Usmoniylar imperiyasi davridagi matbuot asosan hukumat nazoratida bo'lib, mustaqil fikrlarni ifoda etishda cheklovlar mavjud edi.

19-asr oxiri va 20-asr boshlariga kelib, arab dunyosida milliy va mustaqil nashrlar paydo bo'la boshladi. Bu davrda arab millatchiligi g'oyalari kuchayib, hukumat nazoratidan tashqari bo'lgan gazetalar va jurnallar ham nashr etilgan. Ushbu nashrlar davlatga oid axborot bilan cheklanmay, jamiyatning turli ijtimoiy va siyosiy masalalarini muhokama qilish uchun platforma sifatida xizmat qila boshladi.

Masalan, Misrda "Al-Ahrom" gazetasi 1875 yilda nashr etilgan va u mustaqil fikrlarni bayon qiladigan platformaga aylandi. Unda jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, millat kelajagi va islohotlarga oid masalalar muhokama qilingan. Milliy nashrlar orqali arab jamiyatida ma'lum bir savodlilik darajasi shakllandi va xalqning siyosiy ongi oshdi.

20-asrning ikkinchi yarmida ko'plab arab davlatlari mustaqillikka erishdi. Buning natijasida ular o'z milliy matbuotlarini rivojlantirishga ahamiyat qaratib boshladilar. Milliy davlatlar o'z axborot siyosatini belgilashga harakat qilib, matbuotni siyosiy islohotlarning bir qismi sifatida ko'rganlar.

Bu davrda davlat ommaviy axborot vositalari orqali davlat siyosati va islohotlar haqida axborot tarqatishga e'tibor qaratdi. Milliy matbuot davlat nazorati ostida bo'lgani sababli, ko'p hollarda u propaganda vositasi sifatida ham qo'llanilgan. Shunga qaramay, arab davlatlari bu orqali o'z milliy madaniyatlarini ommalashtirishga va jamiyatdagi birlikni mustahkamlashga intildilar.

Aynan shu davrda, ya'ni, XX asr boshlarida Uzbekiston xududida milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib etuvchi yangi nashrlar, jumladan, "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" kabi gazeta-jurnallar paydo bo'lgan. Ular o'z davrida jamiyatning siyosiy va madaniy ongini shakllantirishda katta rol o'ynagan.

Sovet davrida o'zbek matbuoti davlat nazoratiga o'tib, sosialistik mafkurani targ'ib qilishga qaratilgan. Bu davrda matbuot davlat nazoratida bo'lib, ijtimoiy va siyosiy funksiyalari cheklangan bo'lgan. bo'lsa, mustaqillik yillarida u milliy o'zlik va qadriyatlarini tiklash va targ'ib qilishda. Lekin mustaqillikdan so'ng, o'zbek matbuoti milliy o'zlikni tiklashda, madaniy merosni saqlashda va jamiyatni ma'naviy tarbiyalashda muhim vositaga aylandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda zamonaviy matbuot milliy qadriyatlarini saqlash va jahon axborot maydonida o'z o'rnini mustahkamlash yo'lida rivojlanmoqda. Zamonaviy o'zbek matbuoti faoliyat yurituvchi vositalar va uning yetakchi vakillari quyidagicha:

Matbuot vositalaridan gazetalar va jurnallarni tahlili: "Xalq so'zi" – O'zbekistonning asosiy davlat gazetalaridan biri. Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalarni keng yoritadi. "O'zbekiston ovozi" – asosan milliy qadriyatlarini targ'ib etishga qaratilgan nashr. "Yangi O'zbekiston" – yangiliklar,

ijtimoiy-siyosiy tahlillar va davlat siyosatiga oid maqolalarni chop etuvchi zamonaviy gazeta. "Jahon adabiyoti" – adabiy va madaniy nashr, milliy va jahon adabiyotini targ'ib etadi. "Tafakkur" – ilmiy va intellektual maqolalarga ixtisoslashgan jurnal.

Internet nashrlari va axborot agentliklari: "Kun.uz" – O'zbekistondagi eng mashhur internet nashrlardan biri. Jahon va mahalliy yangiliklarni tezkorlik bilan yoritadi. "Daryo.uz" – yoshlar orasida mashhur, ijtimoiy tarmoqlarda faol yangilik platformasi. "Gazeta.uz" – tahliliy materiallari va turli sohalaridagi yangiliklari bilan tanilgan internet nashri. "Podrobno.uz" – iqtisodiyot, siyosat va jamiyat hayotini yorituvchi internet nashr.

Teleradiokanallar: "O'zbekiston 24" – 24 soatlik yangilik telekanali, siyosiy va ijtimoiy voqealarni yoritadi. "Yashnobod" va "Madaniyat va ma'rifat" – madaniy va ta'limiy telekanallar. "Sevimli TV" va "Zo'r TV" – yoshlar uchun mo'ljallangan telekanallar, ko'ngilochar va ta'limiy kontent bilan mashhur. Ijtimoiy tarmoqlar va blogosfera: Telegram kanallari, jumladan "Xabar.uz", "Qalampir.uz", va "Sof.uz" – mahalliy va xalqaro yangiliklarni tezkor yorituvchi asosiy manbalarga aylandi.

Bloggerlar, jumladan, Elmurod Shermetov va Azizbek Adhamov kabi shaxslar ijtimoiy masalalarni muhokama qilib, jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazmoqda.

Zamonaviy o'zbek matbuoti vakillaridan matbuot va jurnalistika sohasida faol Sherali Turdiyev, u ilmiy va tahliliy jurnalistika sohasida tanilgan jurnalist. Nodirbek Saidov – tahlilchi va ijtimoiy jurnalistika vakili. Aziza Qurbonova – axborot texnologiyalari va jamiyat masalalarini yorituvchi zamonaviy jurnalist. Ijodkorlar va mualliflar sifatida Mirabror Usmonovni kelitirishimiz mumkin, u adabiy va tarixiy maqolalar yozuvchi jurnalist. Gulnora Nurullayeva – ijtimoiy-iqtisodiy mavzularda yozuvchi jurnalist va muharrir.

**Xulosa.** Umuman olganda, zamonaviy o'zbek matbuoti tezkorlik va ob'yektivlikka e'tibor qaratmoqda. Axborot manbalari ko'plab ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Shuningdek, milliy madaniyat va o'zlikni saqlash bilan birga, xalqaro yangiliklar va global muammolarni yoritishda ham ahamiyat qaratiladi. Zamonaviy vositalar, jumladan, podkastlar va videobloglar orqali yangi auditoriyalarni jalb qilish yo'lida faoliyat olib borilmoqda. Jumladan, Zamonaviy o'zbek matbuoti o'z rivojlanish bosqichida milliy an'analarni saqlab, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish orqali auditoriya bilan yaqin aloqa o'rnatishga intilmoqda. Bu uni xalqaro axborot maydonidagi o'rnini mustahkamlashga yordam bermokda.

Bugungi kunda arab matbuoti ham jahon axborot vositalari bilan raqobatlashmoqda. Sputnik telekanallari, internet va ijtimoiy tarmoqlar kabi zamonaviy axborot texnologiyalari arab matbuotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Misrdagi "Al-Jazira" telekanali va Saudiya Arabistonidagi "Al-Arabiya" kabi telekanallar arab dunyosidagi turli masalalarni yoritishda yetakchi axborot vositalariga aylandi.

Bu telekanallar nafaqat arab davlatlari va O'zbekistonda, balki butun dunyoda katta auditoriyaga ega bo'lib, arab jamiyati, siyosat va madaniyat haqida axborot tarqatishda katta rol o'ynamoqda. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir inson axborot tarqatish imkoniyatiga ega bo'lgani sababli, arab matbuoti kengayib bormoqda.

Mavorounnaxr va arab matbuoti tarixiy rivojlanish va jamiyatdagi roli jihatidan turli yo'llarni bosib o'tgan. Arab matbuoti jahon miqyosidagi siyosiy va ijtimoiy masalalarni yoritishda yetakchi axborot manbai sifatida xizmat qilsa, Mavorounnaxr matbuoti asosan milliy madaniyatni saqlash va milliy qadriyatlarini keng yoyishga yo'naltirilgan. Har ikki matbuotning o'ziga xos rivojlanish yo'li mavjud bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy va madaniy jihatlarini ko'rsatadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Fitrat, Abdurauf. Roshid xalifalar tarixi. – Toshkent
2. Matyakubov, Dilshodbek. Hilolning to'rt nuri. – Toshkent
3. Xaybullin, I.N. Stilistika arabского языка. – Moskva: SAD, 2008.
4. Belkin, V.M. Arabskaya leksikologiya. – Moskva: MGU, 1961. – 200 s.
5. Mahmud Zamaxshariy. al-Mufa'ūūāl fī ūifāti-l-i'rāb (المفصل في صفة الاعراب). – Qo'lyozma №5198. O'zR FASHI, 1357 yil.
6. Kasimova, S.S. XI-XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlari. – Toshkent: [Nashriyot nomi], 2019.